

O'ZBEKISTON AHOLISINING SALOMATLIK KO'RSATGICHINING DUNYO VA MDH DAVLATLARI ORASIDAGI O'RNI

*Abdusattorova Sabohat Nabijon qizi
Isaqova Dilobar G'ayratjon qizi
Turg'unova Dilshoda Doniyorjon qizi
Quva Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi*

Annotatsiya: Inson biror kasallikka chalinmaguncha barcha jiddiy va xavfli kasalliklar faqatgina o'tmishda qolgan deb o'ylaydi. Hozirda esa zamonaviy tibbiyot barchasiga davo topishiga umidvor. Afsuski, XXI asrda ham keng tarqalgan kasalliklarga e'tiborsizlik tufayli inson hayoti xavf ostida qolishi, hattoki o'lim bilan yakun topishi mumkin. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, ushbu hujjat doirasida fuqarolar salomatligini mustahkamlash hamda o'ta xavfli viruslar va kasalliklarga qarshi kurashga katta e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: demografiya, epidemiya, kasallanish, vaksinatsiya, viruslar, turmush tarsi.

O'zbekiston tibbiyot, salomatlik va hayot bilan bog'liq barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyo reytingida 55 o'rinni egalladi. Mazkur reyting natijasi Britaniyada chop etiladigan The Lancet jurnalida e'lon qilingan.

Ushbu hujjat 33ta ko'rsatkich bo'yicha baholangan ballar yig'indisiga ko'ra hozirlangan.

Mamlakatlar salomatlik borasidagi farqini aniqlashda – bolalar va yangi tug'ilgan chaqaloqlar o'limi, yo'l-transport hodisalaridagi o'lim hollari, bolalarning ortiqcha vaznga egaligi, alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlari iste'moli darajasi, OIVni yuqtirganlar soni, tuberkulyoz va gepatit B kasalligi bilan xastalanganlar va o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq raqamlarga e'tibor qaratilgan.

Har bir mamlakatdagi vaziyatni hisoblash uchun 1990-2015 yillardagi raqamlar taqqoslangan. Shunga ko'ra, O'zbekiston jahon reytingida 188 mamlakat orasida 55 o'rinni egallagan. Shu bilan birga, ta'kidlanishicha, O'zbekiston respublikasi MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi o'rinda.

MDH mamlakatlari orasida O'zbekistondan keyingi o'rinni Turkmaniston egallagan (60-o'rin). MDHning boshqa a'zolari quyidagicha o'ringa joylangan: Ozarbayjon (75), Moldova (80), Qozog'iston (85), Armaniston (86), Tojikiston (99), Qirg'iziston (113), Ukraina (118), Rossiya (119) va Belorussiya (120).

O'zbekistonga ayrim jihatlar bo'yicha eng yuqori (100) yoki unga yaqin ball qo'yilgan. Xususan, «akusherlar kuzatuvda tug'ish» bo'yicha 100 ball, «Kasalliklarni tibbiy profilaktika qilish» - 93 ball, «Havoning ifloslanishi bilan bog'liq kasalliklar» - 89 ball, «Oilani rejalashtirish va reproduktiv yosh» - 84 ball, «Chekish» va «Ifloslangan suvni iste'mol qilishdan yuquvchi kasalliklar» - 81 ballga ega bo'lgan.

Mazkur reytingda Islandiya birinchi o'ringa joylashtirilgan. Birinchi beshlikka, shuningdek, Singapur, Shvetsiya, Andorra va Buyuk Britaniya kirgan.

Sog'liqni saqlash vazirligining so'zlariga ko'ra, bugungi kunda respublikada bolalar orasida yuqumli kasalliklar va nafas yo'li bilan bog'liq muammolarga qarshi kurash muhim tadbirlardan biri sanaladi. Bundan tashqari, oradan yillar o'tib, respublikada yana qizamiqqa chalinish holatlari qayd etilgan.

"Aholi vaktsinatsiyasi va immunizatsiyasi tufayli O'zbekistonda ko'p yillar davomida xavfli kasalliklar uchramay qo'ygan edi. Misol uchun, poliomyelit va gepatit V holatlari qayd etilmagan. Faqat gepatit A ga barham berishga muvaffaq bo'lmadik. Chunki u o'sha vaqtda milliy dasturga kiritilmagan, emlash ishlari esa asosan xususiy klinikalarda amalga oshirilgan. Lekin biz bugungi kunda bu muammoga qarshi kurashayapmiz. Qizamiqqa chalinish holati uzoq vaqt kuzatilmagan edi, ammo bugun u yana bo'y ko'rsatmoqda, bu emlanmaganlar tomonidan chetdan olib kirilgan yuqumli kasallikdir. Mana shu holat aholi immunizatsiyasi samaradorligini navbatdagi bor isbotlamoqda". "Agar 2-3 yil oldin biz 3 ming nafar bemorlardan atigi ming nafarini operatsiya qilish imkoniga ega bo'lgan bo'lsak, bugun O'zbekiston bu bemorlarning barchasini zarur tibbiy ko'mak bilan ta'minlashga qodir. Toshkentdagi klinikalardan tashqari, Samarqand, Farg'ona vodiysi, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida ham kardio-jarrohligi markazlarimiz bor. Endilikda bu turdagi operatsiyalar o'sha markazlarda ham o'tkaziladi". "Ishning yana bir yo'nalishi - tayanch-harakat apparati muammosi mavjud bo'lgan nogiron-bolalar rehabilitatsiyasidir. Bu murakkab va uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, zamonaviy uskunar va yuqori malakali kadrlar bo'lishini talab etadi. Bu singari bolalarning to'laqonli jamoatchilik muhitiga jalb qilish uchun, milliy konssetsiyaga muvofiq, Toshkentda va mamlakatning yana to'rtta regionida maxsus rehabilitatsiya markazlari tashkil etiladi".

2022- yil 1- yanvar holatiga Respublikamizda aholini birinchi marta tashxis bilan qayd qilingan kasalliklarga chalinish turlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich **nafas organlari kasalliklari hissasiga to'g'ri** kelib, xar 100 ming aholidan **13 ming nafarida ushbu** kasallanish kuzatilmoqda.

Har 100 ming aholiga nisbatan birinchi marta tashxis bilan qayd qilingan jami kasalliklar soni, ming birlik

- ❖ nafas organlari kasalliklari - 13
- ❖ ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari - 11

- ❖ qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari, immun mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar - 5
- ❖ siydik-tanosil tizimi kasalliklari - 5
- ❖ qon aylanish tizimi kasalliklari - 3
- ❖ jarohatlanish, zaharlanishlar va ayrim tashqi sabablar bilan bog'liq asoratlar - 3
- ❖ ko'z va uning qo'shimcha apparati kasalliklari - 3
- ❖ asab tizimi kasalliklari - 3
- ❖ ba'zi yuqumli va parazit kasalliklar - 2
- ❖ quloq va so'rg'ichsimon o'simta kasalliklari - 2

2022 yilning 1 oktabr holatiga O'zbekistonda qayd etilgan o'lim holatining 56,8 foizi qon aylanish tizimi kasalliklariga to'g'ri kelgan.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga [ko'ra](#), 2022 yilning 9 oyida qayd etilgan o'lim holatlarining kasalliklar bo'yicha sonida qon aylanish tizimi kasalliklari birinchi o'rinda – 74 109 ta holat.

Ushbu ko'rsatkich qolgan kasalliklar kesimida quyidagicha ko'rinish oldi:

- nafas olish a'zolari kasalliklari – 12 805 ta;
- o'simtalardan – 10 535 ta;
- baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan – 7 260 ta;
- ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari – 5 264 ta;
- yuqumli va parazit kasalliklari – 1 976 ta;
- boshqa kasalliklardan – 18 417 ta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://stat.uz/uz>
2. <https://oz.sputniknews.uz/>
3. <https://daryo.uz/>